

MAKTABGACHA YOSHDAGI DUDUQLANUVCHI BOLALARNI PSIXOMOTOR RIVOJLANISHGA KOMPLEKS YONDOSHISH XUSUSIYATLARI

X. N.Muzaffarova -Jizzax DPI Maxsus pedagogika kafedrası o`qituvchisi
Ikromova Dilafuz-Defektologiya (logopediya) yo`nalishi II-kurs magistranti

Annotatsiya:Maqolada bolalar bilan olib boriladigan ishlarning umumiy vazifalari, logopedik mashg`ulotlarning turli ko`rinishlari, nutqni rivojlantirishga doir ko`pgina ish shakllari, didaktik, harakatli, syujetli-rolli va ijodiy o`yinlar, sayohatlar, ertaliklar, konsertlarga tayyorlanish hamda ularda ishtirok etish, mikrofon oldida so`zga chiqish va boshqalarda orqali bolalarda nutqiy aloqa sohasida ijobiy natijaga erishishi haqida ma`lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar. Duduqlanish, motor, didaktik, harakatli, syujetli-rolli va ijodiy o`yinlar, sayohatlar, ertaliklar, konsert, logopedik massaj, ritmika.

Mashg`ulotlar maktabgacha yoshidagi duduqlanuvchi bolalar ta`limining asosiy shakli hisoblanadi. Mashg`ulotlarda bolalar yangi bilim va ko`nikmalarni oladilar, shu bilan birga umumiy va nutqiy hatti-harakat malakalarini o`zlashtiradilar va duduqlanishdan holi mustaqil nutqdan foydalanish malakalarini egallaydilar. Duduqlanuvchi bolalarda og`zaki ko`rsatmalar va namoyish yoki namunaning namoyishsiz birgina og`zaki ko`rsatmalarga mos ravishda o`quv faoliyatini bajarish qobiliyati shakllanadi, idrok, xotira, tafakkur, bilishga bo`lgan qiziqishlari rivojlanadi va boshqaruv jarayonlari shakllanadi. Bolalar aniq va umumiy savollarga javob berishga o`rganadilar; logoped, tarbiyachining talabiga ko`ra qisqa va keng javob qaytarishni mashq qiladilar; normal tempda, atrofdagilar uchun tushunarli, yetarlicha baland, aniq, ma`noga mos ravishda javob beradilar. Mashg`ulotlarda ot, sifat va tilning boshqa bo`laklarining grammatik shakllarini to`g`ri qo`llash malakalari mustahkamlanadi.

Diqqatning jamlanganligi, fahmlilik, eslash, dialog vaqtida faol ishtirok etish, lozim bo'lganda esa impulsiv bayondan o'zini tiyish kabi sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan ishlar mashg'ulotlarning ajralmas qismi hisoblanadi. O'rtoqlaridan ilgari ketmay va ulardan ortda qolmay ishni bir vaqtda boshlash va yakunlash ko'nikmasi shakllanadi, faoliyatning normal tempi, harakatchanlik, kelishib, ketma-ketlikda ishlash odati, boshlangan ishni oxiriga yetkazish, faoliyatning ikki turi o'rtasida diqqatni taqsimlay olish, materialni (qog'ozni) ratsional sarflash, qo'llanmalar, qurollardan to'g'ri foydalanish shakllantiriladi. Ijobiy shaxsiy sifatlarni va umumiy va nutqiy hatti-harakat malakalarini shakllantirish, shuningdek mustaqil nutqdan foydalanish malakalarini mustahkamlashga alohida e'tibor beriladi.

Shuningdek nafaqat jamoada, balki yakka tarzda o'ynash ko'nikmasini rivojlantirishga, o'yin qoidalariga mos ravishda o'z istaklarini bo'ysindirish yoki chegaralashga, iroda sifatlarini tarbiyalashga: o'z-o'zini nazorat etish, o'z hatti-harakatlariga javobgarlik, diqqatni jamlash, o'yinda faol bo'lish va bir vaqtning o'zida lozim bo'lsa, o'z hissiyotlari va hoxishlarini tiya bilishga katta e'tibor beriladi. O'yin jarayonida nutqni korreksiyalash duduqlanuvchi bolalarda ommaviy bolalar bog'chasidagi bolalar singari, mehnatga bo'lgan qiziqish va muxabbatni rivojlantirish, ularni mehnat topshiriqlarini harakatchan va puxta bajarishga o'rgatish, mehnat natijalariga erishishga bo'lgan intilishni, barcha bolalar bilan bir qatorda birgalikdagi mehnat faoliyatida ishtirok etish tayyorgarligini tarbiyalash lozim. Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarda onson mehnat turlari malakalarini, kattalar va o'rtoqlarining mehnatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni shakllantiradi va bir vaqtning o'zida mehnat qurollari haqidagi bilimlarni mustahkamlaydi.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchilarda mehnat jarayonida kattalar nutqiga bo'lgan e'tiborni tarbiyalash, ularda sabr, diqqatni jamlash, maqsadga yo'nalganlikni tarbiyalash juda muhim. Ular topshiriqni oxirigacha tinglay olishlari, so'ng esa uni bajarishga kirishishlari kerak. Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan ishlarning umumiy vazifalari bilan bir qatorda rejim momentlarini

ularning umumiy va nutqiy hatti-harakatlari singari nutqiy faoliyatni korreksiyalashda ham qo'llash lozim. Kun tartibida duduqlanishsiz to'g'ri nutqiy muloqotni tashkil etish uchun qator qulay fursatlar bo'lib, ular xususida bolalar bilan suhbatni tashkil etish mumkin. Bunda bolalarni muloqot vaqtida tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bolalar bir-birlarini yaxshi ko'rishlari uchun ularni to'g'ri o'tkazish maqsadga muvofiq (doira, yarim doira).

Bolalar suhbat davomida ishtirok etishlari uchun barcha momentlarni aniq tashkil etish lozim: yuvinish, kiyinish, yechinish, navbatchilik, ekskursiya, kuzatish va b.

Bolalarni barcha harakatlarni ortiqcha shovqinsiz bajarish, kattalar nutqini va o'rtoqlarining javoblarini tinglash, savol berilganda javob qaytarish va o'rtoqlarini gapini bo'lmaslikka o'rgatish lozim. Kattalar nutqiga alohida e'tibor beriladi.

Ular nutqi sokin bo'lishi, savollar bolaning savoli va javobi o'rtasida pauzalarga amal qilgan holda aniq shakllantirilgan bo'lishi kerak. Javobni o'ylab olish uchun vaqt berish, normal tempda so'zlash, shaxsiy nutqni sekinlashtirmaslik va bolalardan nutqlarini sekinlashtirishni talab etmaslik kerak. Duduqlanadigan bolalar bilan olib boriladigan logopedik mashg'ulotlarga quyiladigan asosiy talablar:

1) Logopedik mashg'ulotlar duduqlanuvchi bolaning nutqi va shaxsiga pedagogik-tuzatish orqali ta'sir etishning asosiy vazifalarini o'zida aks ettiradi.

2) Logopedik mashg'ulotlar muayyan tartibda, uzluksiz, bosqichli, asosiy didaktik prinsiplarni hisobga olgan holda har bir bolaning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq ravishda; bolalarning ongliligi va faolligiga tayangan holda olib boriladi; mashg'ulotlarda qo'llanmalar, ta'limning ko'rgazmali, texnik vositalaridan foydalaniladi; mashg'ulotlar tarbiyalanayotgan to'g'ri nutq va xatti-harakat kunikmalarining mustatahkam bo'lishiga yordam beradi.

3) Logopedik mashg'ulotlar maktabgacha tarbiya yoshdagi va maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va o'qitish dasturlari talablariga mos bo'ladi.

4) Mashg'ulotlarda duduqlanadigan bolalarning turli sharoitlarda to'g'ri nutqi va xatti-harakatini mashq qildirish zarurligi hisobga olinadi, masalan: logopediya

kabinetida va undan tashqarida, turli hayotiy vaziyatlarda, tanish va notanish shaxslarning ishtirokida va hokazo. Shu maqsadda logopedik mashg'ulotlarning turli ko'rinishlari: nutqni rivojlantirishga doir ko'pgina ish shakllari, didaktik, harakatli, syujetli-rolli va ijodiy o'yinlar, sayohatlar, ertaliklar, konsertlarga tayyorlanish hamda ularda ishtirok etish, mikrofon oldida so'zga chiqish va boshqalarda qo'llaniladi.

5) Mashg'ulotlar shunday tashkil qilinadiki, ularda bola duduqlanishsiz va u bilan birga kelib chiqadigan buzilishlarsiz gapirishi lozim.

6) Mashg'ulotlar boladagi yaxshi kayfiyatni, bardamlik, o'z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi.

7) Duduqlanuvchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda to'g'ri nutq namunalari logopedning, samarali shug'ullanadigan bolalarning nutqi, badiiy so'z ustalarining chiqishlari aks ettirilgan magnitofon yozuvlari va plastinkalar, logopediya kursini avval muvaffaqiyatli tamomlaganlarning tantanali chiqishlari va hokazolar muntazam ishtirok etadi.

8) Mashg'ulotlar atrofdagilarning duduqlanadigan bolaga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishlari va uning to'g'ri tarbiyalanishi asosida olib boriladi. Duduqlanadigan bolaning mustaqil ishlashini tashkil etish nutq tarbiyachisi vazifalarini oilaviy-maishiy, o'quv-tarbiyaviy sharoitlarda va uning tengdoshlari jamoasida bajarilishiga yo'naltiriladi. Ular quyidagilar:

- Nutqni rivojlantirish va atrofdagi olam bilan tanishtirishga doir mashg'ulotlar

- Kattalarga shaxsiy taassurotlar haqida hikoya qilib berishga o'rgatish.

- Nutqga bo'lgan diqqatni tarbiyalash.

- Bolalarda mashg'ulot davomida va mashg'ulotdan tashqari vaqtda har qanday suhbatdoshni (kattani va bolani, tanish va notanish kishini, yaqin qarindoshni b.) diqqat bilan tinglash malakasini mustahkamlash.

- Kattalar singari, o'rtoqlarning tanbexlariga xotirjam munosabatda bo'lish, har qanday topshiriqni to'g'ri bajarish ko'nikmasini mustahkamlash.

- Nisbatan murakkab kontekst nutqda mashq qilish.

- Bolalarni rasm asosida bog'langan hikoyalarni, shaxsiy tajriba asosida ijodiy hikoyalarni tuzishga o'rgatishda davom etish.

- Taqqoslash, aniqlashni qo'llash asosida murakkab gaplarni qurishga o'rgatish. Ishtirokchi shaxslar ovozlariga taqlid qilgan holda ertak, hikoyalarni ifodali qayta so'zlab berishga o'rgatish.

- O'quv yili davomida o'zlashtirilgan nutqning barcha shakllarini mustaqil qo'llashni mustahkamlash.

- Nutqga bo'lgan diqqatni tarbiyalash. Bolalarda atrofdagilar nutqiga e'tiborli munosabatda bo'lish malakasini, aytilganlarni tinglash, tushunish va to'g'ri bajarish ko'nikmasini mustahkamlash.

- Nisbatan murakkab kontekst nutqda mashq qilish. Bolalarda ko'rgazmaga tayanmagan holda, ba'zi hollarda kattalar hikoyalariga tayanmagan holda bajarilishi kutilayotgan faoliyat haqida ketma-ketlikda va juda aniq hikoya qilish malakasini; o'rtog'i tomonidan boshlangan hikoyani davom ettirish ko'nikmasini mustahkamlash.

- Bolalarni mazmunni qisqa, faqatgina ishdagi muhim harakatlarni sanab o'tgan holda ifodalashga o'rgatish.

- Hikoya va faoliyatni avvaldan rejalashtirish malakasini mustahkamlash. Alohida javoblar singari, butun hikoyalarning barcha shakllarini mustahkamlash.

V.A.Gilyarovskiy, nutq rivojlanishining kechikishi qisman motorikaning umumiy rivojlanmaganligi ko'rinishi bo'lishi mumkin, deb ta'kidlagan. M.F.Bruns duduqlanadigan bolalar motorikasini tadqiq qilar ekan shunday xulosaga keladi, ular da umumiy motor rivojlanishida ifodalangan qoloqlik bo'ladi. V.I.Dresvyannikov duduqlanadigan maktab o'quvchilari motorikasi xususiyatlarini tahlil qilar ekan umumiy motor ontogenezi va nutqning o'zaro aloqadorligi va parallelligini ko'rsatadi, hamda bolada motorika va ekspressiv nutqning rivojlanishi maqkam birlikda sodir bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Muallif, korreksion ish ta'sirida motorika va nutq sal kam bir biriga parallel ravishda o'zgaradi, degan xulosaga keladi[31].

M.A.Koltsova bolada nutqning rivojlanish bosqichi va qo'l panjasi ingichka motorikasining rivojlanish darajasi o'rtasidagi korrelyatsiyaning mavjudligini isbotlab berdi, qo'l panjasini artikulyatsion apparat kabi nutq organi deb qarashga hamma asoslar bor. Shu nuqtai nazardan qo'lning proektsiyasi miyaning yana bitta nutq zonasi bo'ladi.

A.V.Zaporojets erkin harakatlarni tadqiqot qilishning muhimligini belgilab, odamda ikkinchi signal tizimi funksiyalarini umumiyashtirish va abstraktlash ta'siri ostida erkin harakatlarning shakllanishi nutq ishtirokida ro'y beradi, deb ko'rsatadi.

Ye.M.Mastyukova nutq harakati funktsional tizim bilan ontogenetik, anatomik va funktsional bog'langan deb ta'kidlaydi. Shuning uchun u, ayniqsa, serebral paralich bilan azob chekuvchi bolalar bilan logopedik ishning asosiy tamoyillaridan biri, harakatli-kinetik rag'batlantirish tamoyili deb hisoblaydi.

Shunday qilib, umumiy motorikaning o'xshash xususiyatlarini rivojlantirish yo'li bilan umumiy motorika bilan nutqning aloqasi artikulyatsion apparat organlari harakatining zarur sifatini rivojlantirishga imkon beradi[33].

Motor buzilishlarining har xilligi duduqlanishda belgilanadi. Ba'zi duduqlanadigan bolalarda o'zining yoshidan uch oy katta bo'lgan motorli qobiliyatni aniqlash mumkin. Biroq ko'pchiligida motorika rivojlanishidagi qoloqlik to'rt oylikdan sal kam besh yoshgacha bo'ladi. Buzilishlar faqat umumiy bo'lmasdan, balki mimikali motorika va oral praksisga ham tegishli bo'ladi. Motor funksiyasining organik buzilishi shunday ko'rinadi:

- to'kilish simptomlari – oddiy mashqlarni ishlab chiqarishning mumkin emasligi;
- tilning giperkinez, tremor, fibriolliyar va fastsikulyar qisqarishi;
- ataktik tartibsizliklar – u yoki bu harakatni birdaniga bajarishning mumkin emasligi (bajarish faqat ko'rish nazoratida bo'lishi mumkin);
- apraksis tartibsizliklar (yakka hollarda).

N.S.Samoylenko, duduqlanadigan bolalarda motorikaning rivojlanishi nutqiy rivojlanishdan ilgari yurishi yoki nutqdan orqada qolishi mumkin va alohida motor

qobiliyatli duduqlanadigan bolalar ham uchrashi mumkin deb hisoblaydi. N.S.Samoylenko motorikasining holatiga qarab duduqlanadigan maktabgacha yoshdagi to'rtta guruhni ajratadi.

Birinchisi – tempida, ritmida, muskullar tonusida, mo'ljal olish va jamoaviy o'zaro munosabatlarda buzilishi bor bolalar. Bunda diqqat va faollik buzilmagan. Motorikadagi nuqsonlarga tez barham beriladi.

Ikkinchisi – motor munosabatida bo'sh qobiliyatli bolalar, harakatlarida chaqqonlik, tezlik, aniqlik yo'q. Tempi susaytirilgan, lanj e'tiborli, faollik sekin-asta uyg'onadi, hech qanday tashabbus yo'q. Vazifani o'zlashtirishni o'rganish uzoq vaqtni talab qiladi. Muskullar tarangligini tormozlantirish va harakatlarni muvofiqlashtirishni yaxshilash ustidagi ish yaxshi natijalar bermaydi. Yengil motor qoloqlik hollari ham bo'lishi mumkin.

Uchinchisi – muskullari kuchli tormozlangan bolalar. Qo'llarning holati tayoqqa o'xshab cho'zilgan, barmoqlar musht qilib siqilgan yoki kerilgan, qo'llarni harakat paytida bukilmaligi va yurganda oyoqlarning juda kam bukilishi; qadam tashlaganda qo'llarni tebratmaslik, bir qo'lni tebratish yoki cho'zilgan qo'llarni oldinga itarib notabiiy tebratish va oyoqlarning harakati bilan muvofiqlashmaslik. Bo'yin va yelkaning kuchli tormozlanishi. Bunday bolalar bilan ham jamoaviy, ham yakka tartibda katta ish olib borish talab etiladi. Bolalar ko'pincha jamoaviy o'yinlardan bosh tortadilar, jiddiy yuz bilan, hech qanday hayajonlarini bildirmasdan yakka holda o'ynashni afzal ko'radilar, faol rollardan bosh tortadilar. Ular bilan ishlash uzoq muddat davom etadi.

To'rtinchisi – tez tempda ishlab chiqiladigan bemaqsad ortiqcha harakatlar bilan motorli tez ta'sirlanadigan bolalar. Bunday bolalar kamdan kam uchraydi. Ular uchun osoyishta holatda bo'lish bajarib bo'lmaydigan darajada qiyindir. Jamoaviy o'yinda o'z navbatlarini kutib turmaydilar, tanaffussiz harakatlarga intiladilar. Muskullar tonusi bir qancha tarang, o'yinga yuqor hayajonli munosabat kuzatiladi. Chopish va sakrash ularni kuchli ta'sirlantiradi. Faollik qaddan tashqari yuqori: boshqalar uchun ham bajarishga tayyorlar, begona o'yinga aralashib

ketadilar, tajovuzkor harakatlar ko'rsatadilar, rahbarlik rolini olishga intiladilar. Bunday bolalar bilan ishlash uzoq davom etadi, natijasi har doim ijobiy emas.

Duduqlanadigan bolalarning harakatlantiruvchi tormozlanishi shularda ko'rinadiki, ular oson hayajonlanadilar, o'yin paytida behuda ovora bo'ladilar, sakraydilar, cho'kka tushadilar, qo'llarini silkitadilar, shular bilan o'z hayajonlarini ifoda etadilar, harakatlari keskin, yetarlicha maqsadga qaratilmagan, muvofiqlashtirilmagan, nozik erkin harakatlantiruvchi aktlar to'xtalib shakllanadi, harakatlar ko'lami katta quloch yoyib ketadi. O'yindan keyin bolalar uning oqimi va natijalarini muhokama qilishga urinib, uning borishini qo'pgina muvofiqlashtirilmagan harakatlarda eslaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muzaffarova X.N., Maktabgacha logopediya. Jizzax.: "Ruhshona servis", 2021
2. Nurkeldiyeva D.A., Chicherina Ya.Ye. Ilk, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni psixologik-pedagogik, logopedik tekshirish. – T.: 2014
3. Козловская Г. Ю. Нарушение темпа речи. Заикание ТЕМА №3. Этиология и патогенез заикания. Москва, 2014 с – 2-4
4. Белякова Л.И., Дьякова Е.А. Заикание. Учебное пособие для студентов педагогических институтов по специальности "Логопедия" — М.: В. Секачев, 1998. —с-152
5. Muzaffarova, X. (2021). TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISHDA O'QITUVCHINING MAHORATI. Scienceweb academic papers collection.
6. Muzaffarova, X. (2021). Maktabgacha ёшдаги болалар билан олиб бориладиган логопедик машғулотларни ўйинлар асосида ташкиллаштириш. Scienceweb academic papers collection.
7. Muzaffarova, X. (2021). МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ YOSHIDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA KORREKSION METODLARINING MOHIYATI. Scienceweb academic papers collection.

8. Muzaffarova, X. (2021). BOLALAR PSIXIKANING RIVOJLANISHINI BELGILAYDIGAN OMILLAR. Scienceweb academic papers collection.
9. Muzaffarova, X. (2021). MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA KORREKSION METODLARINING MOHIYATI. Scienceweb academic papers collection.
10. Muzaffarova, X. (2021). BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUQSONLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. Scienceweb academic papers collection.
11. Muzaffarova, X. (2021). TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISHDA O'QITUVCHINING MAHORATI. Scienceweb academic papers collection.
12. Malikaxon Qodirova, [MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISH QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 3 \(2021\): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari](#)
13. Malikaxon Qodirova, [МАШҒУЛОТЛАР ВА УЛАРНИНГ БОЛА ИДРОКИНИ ШАКЛЛАНИШИДАГИ АҲАМИЯТИ](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 \(2021\): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari](#)
14. Dilfuza Qarshiboyeva, [КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 \(2021\): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari](#)
15. Dilfuza Qarshiboyeva, [IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: Том 1 № 4 \(2021\): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari](#)
16. Qarshiboyeva, D. (2021). ЁШЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШДА ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАР ҲАҚИДАГИ БИЛИМЛАР УЗЛУКСИЗЛИГИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном*

образовании,

(2).

извлечено

от

<https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2906>

17. Imomqulova, F. (2021). ОИЛАДАГИ ТАРБИЯ УСУЛЛАРИНИ БОЛАНИНГ МУВАФФАҚИЯТГА ЭРИШИШИГА ТАЪСИРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3076>

18. Shirin Kamolova, [ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБРАЗОВАНИИ ЯВЛЯЕТСЯ ТРЕБОВАНИЕМ СЕГОДНЯШНЕГО ДНЯ](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 2 \(2021\): Журнал педагогика и психологии в современном образовании](#)

19. Achilovna, A. N., & ugli, K. S. F. (2022). Information Technologu in the Professional Development of Modem Teachers. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 2(2), 73–77. Retrieved from <https://openaccessjournals.eu/index.php/ijdias/article/view/1054>

20. Karshibaeva Dilfuza Burlievna (2020). CRITICAL THINKING IN ADOLESCENTS. Евразийский Союз Ученых, (12-1 (81)), 4-5.